

**MAXMUDXO‘JA BEHBUDIY IJODI OLIMLAR TALQINIDA**

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti  
Norboyeva Maftuna Shavkat qizi*

**Annotatsiya.** Turkiston jadidchiligining yo‘lboshchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy merosini o‘rganish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Behbudiyning hayoti hamda ijodiga doir olimlarimiz tomonidan yozilgan 10 ga yaqin ilmiy yo‘nalishdagi monografiya, maqolalar bibliografik tahlil qilingan. Maqola so‘nggida o‘rganilgan maqolalardan kelib chiqib xulosalar berildi.

**Kalit so‘zlar:** jadid, Behbudiy, oyna, tanqid, Turkiston muhtoriyati, ma‘rifatchilar, milliy g‘oya.

**ТВОРЧЕСТВО МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ  
УЧЕНЫЕ**

*Международная Исламская Академия Узбекистана  
Норбоева Мафтунa Шавкат кизи*

**Аннотация.** Изучение наследия Махмудходжи Бехбуди, одного из лидеров туркестанского модернизма, приобретает сегодня особое значение. В данной статье библиографически проанализированы около 10 научных монографий и статей, написанных нашими учеными о жизни и творчестве Бехбуди. В конце статьи были даны выводы на основе изученных статей.

**Ключевые слова:** джадид, Бехбуди, зеркало, критика, Туркестанская автономия, просветители, национальная идеология

**MAHMUDKHOJA BEHBUDI'S WORK IN THE INTERPRETATION OF  
THE SCIENTISTS**

*International islamic academy of Uzbekistan  
Norboeva Maftuna Shavkat qizi*

**Abstract.** Studying the legacy of Mahmudhoja Behbudi, one of the leaders of Turkestan modernism, is of particular importance today. In this article, about 10 scientific monographs and articles written by our scientists on Behbudi's life and work are analyzed bibliographically. At the end of the article, conclusions were given based on the studied articles.

**Key words:** jadid, Behbudi, mirror, criticism, Turkestan autonomy, enlighteners, national ideology.

**Kirish.** Millat va uning taqdiri barcha zamonlarda ham dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa o'tgan asrning boshlarida jadid allomalarimiz bu masalani hayotining masalasiga aylantirgan. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza, Abdulhamid Cho'lpon singari ma'rifatparvar jadidlarimiz millat tanazzulining sabablari, uni jaholatdan qutqarish yo'llari, taraqqiyotga to'siq bo'layotgan omillar haqida o'tkir publisistik maqolalar yozganlar.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, — jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch – ma'rifatdir. Shu o'rinda jadid bobolarimiz hayoti, ilmiy ishlarini tahlil qilish, ulardan o'rnak olish biz uchun ham qarz ham farzdir.

Asosiy qism.

Mahmudxo'ja Behbudiy publisistik merosini birinchilardan bo'lib o'rgangan olimlardan biri professor Begali Qosimov hisoblanadi. Olimning quyidagi: Izlay-izlay topganim, — Milliy uyg'onish: ma'rifat, jasorat, fidoyilik kabi monografiyalarida, uning rahbarligida yozilgan oliy o'quv yurtlari uchun — Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti darsligida jadid publitsistikasi, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning publisistik maqolalarida ko'tarilgan muammolar keng va atroflicha o'rganilgan.

Filologiya fanlari nomzodi Boybo'ta Do'stqorayevning — O'zbekiston jurnalistikasi tarixi kabi kitoblarida Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati, adib publisistik asarlarining mavzu ko'lami, ularda ko'tarilgan muammolarning bugungi kun uchun ahamiyati kabi masalalar tahlil etilgan.

Professor Ulug'bek Dolimovning — Milliy uyg'onish pedagogikasi monografiyasida jadid publitsistikasida ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi, jadid mutafakkirlarining axloqiy-estetik qarashlari, avlod tarbiyasi borasidagi fikrlari tadqiq qilingan.

Professor Bahodir Karimovning — Jadid munaqqidi Vadud Mahmud—Abdulla Qodiriy va germevistik tafakkur kabi kitoblarida jadid adiblari va shoirlarining adabiy-tanqidiy qarashlari, adabiyotning jamiyat hayotida tutgan o'rniga doir chiqishlari, Abdulla Qodiriy hayoti va adabiy merosining o'rganilish bosqichlari chuqur o'rganilgan.

Professor Nurboy Jabborovning — Ma'rifat nadir, — Adabiyot va milliy ma'naviyat kitoblarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho'lpon va boshqa jadid mutafakkirlarining millat ma'rifatiga oid fikrlari, millatning jaholatda qolishi sabablari va uni mutaraqqiy xalqlar darajasiga yuksaltirish haqidagi orzulari to'g'risida mulohaza yuritilgan.

Filologiya fanlari doktori Uzoq Jo'raqulovning —Hududsiz jilva, —Nazariy poetika masalalari kitoblarida jadidlar adabiy-estetik qarashlarining mohiyati, yo'nalishlari, nazariy tadqiq masalalari hal etilgan. Jadid publitsistikasi, uning mavzu qamrovi, janr xususiyatlari, ahamiyati haqida e'tibor loyiq fikrlar bildirilgan.

Tabiiyki, – deb yozadi professor N.Jabborov. – tarixni o'rganish masalasiga shu qadar ahamiyat bergan jadidlarimiz millatning o'zlari yashagan davrdagi ahvolini isloh qilish, uni uyg'otish, taraqqiy etgan millatlar darajasiga olib chiqish kabi dolzarb muammolarga ham befarq bo'la olmas edi. Mahmudxo'ja Behbudiyning —Bizni kemirguvchi illatlar, —Muhtaram yoshlarga murojaat, —A'molimiz yoinki murodimiz, —Ikki emas, to'rt til lozim, —Til masalasi kabi maqolalarida davrning benihoya o'tkir muammolari va bu muammolarning muolajasi masalasiga alohida e'tibor berilgani sababi shunda.

Professor Nurboy Jabborov shunday fikr bildiradi: —Behbudiy zamon talablari darajasida, — yangi tadqiqot ila yozilgan, mukammal —Turkiston tarixini orzu qilmoqda. Uning fikricha, ruslar va boshqa ovrupoyilar foydalanayotgan Turkiston tarixiga bag'ishlab burungi asrlarda yozilgan turkiy, forsiy va arabiy tillardagi kitoblar —muxtalif tillarda yozilgan. Ya'ni ularda bir hodisa turlicha talqin etilgan, bir-biriga zid, qarama-qarshi fikrlar ko'p. Behbudiy ana shu farqli jihatlar tadqiq etilgan mukammal tarixni yaratish zaruratini kun tartibiga qo'yimoqda.

Filologiya fanlari nomzodi Qo'ldosh Pardayevning ilmiy ishlarida —Al-Isloh jurnali va umuman jadid matbuotida nashr qilingan publisistik asarlar, ularda ko'tarilgan bahs-munozaralar tadqiqiga diqqat qaratilgan. Jadid matbuotidagi bahslar adabiy-estetik va ijtimoiy-axloqiy yo'nalishda kechganligi aniqlangan. Ushbu mavzuga doir publisistik maqolalar chuqur tadqiq qilingan.

Mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi. Buni ulug' millatparvarning zamondoshlari ham e'tirof etgani ma'lum. Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigani yo'q deb o'ylayman. Mashhur davlat arbobi Fayzulla Xo'jayevning Behbudiy haqidagi bu so'zlarida zarracha mubolag'a yo'q. Zero, Mahmudxo'ja Behbudiy siyosatshunos va publisist, adib va pedagog, noshir va jurnalist sifatida keng qamrovli faoliyat olib bordi. Har bir ishida bosh mezon millat va milliyat masalalari bo'ldi.

Yuqorida sanalgan ilmiy ishlar jadid publitsistikasini tadqiq qilishda, shubhasiz, katta ahamiyat kasb etgan. Ularda Mahmudxo'ja Behbudiy publisistik asarlarida millat va unga xavf solayotgan kuchlarning yoritilishi o'rganilgan. Ushbu maqolada olimlarning mazkur tadqiqotlarida erishilgan yutuqlarga tayanilgan holda ushbu masalani maxsus o'rganish nazarda tutilgan.

Xulosa

Mahmudxo'ja Behbudiyning publisistik merosi millat va milliyat masalalari keng yoritilganligi jihatidan milliy o'zlikni saqlash, milliy ma'rifatning yuksalishi kabi o'lmas g'oyalarni o'zida mujassam etganligi bilan bugungi kunda ham alohida ahamiyatga ega. Adibning bu boradagi qarashlari o'rganish zamonamiz yoshlari qalbida Vatan va millatga muhabbat tuyg'usini kuchaytirishga, bu orqali mamlakatimiz kelajagining nurli bo'lishiga xizmat qiladi.

Behbudiy Turkistondagi barcha xalqlarni, tilidan, diniy mansubligidan qat'i nazar, ittifoq bo'lishga, umumiy manfaat yo'lida birlashishga, Turkiston muxtoriyatini saqlab qolishga chaqirdi. Qozoq birodarlariga murojaat etib ochiq xat yozar ekan, barchani ittifoq bo'lishga chaqirdi. Haq berilmasligi, balki olinishini uqtirdi. Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanilar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar, hatto dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari bilan birlashishini, o'zga katta va quvvatli davlatlarga tobe bo'lib, yutilib, hatto tilini yo'qotgan o'z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoq uchun jon va kuchlarini sarf etar ekan, shonli o'tmishga ega turkiylar o'z ichidagi qarindoshlarimizdan ayrilishi uyat, ahmoqlik, millat tomiriga bolta urish bo'lishini ta'kidladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bizgacha o'rganilgan adabiyotlar yetarli emasligi jadidlarimiz haqida to'liq ma'lumotga ega emasligimizni bildiradi. Ularning hayoti, ilmiy ishlari bilan yanada yaqinroq tanish bo'lishimiz hamda hozirgi kunimizga tatbiq qilishimiz kerak. Bunda albatta davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor va harakat muhim hisoblanadi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz.* – T.:O'zbekiston, 2017.
2. *Do'stqoraev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi.* -T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2009.
3. *Karimov B. Abdulla Qodiriy va germeneytik tafakkur.* - T.:—Akademnashr, 2014
4. *Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xayfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.* - T.: —O'zbekiston, 1997
5. *Jabborov N. Ma'rifat nadir.* - T.: —Ma'naviyat, 2010
6. *Nasirova.N.N (2021) Jadid matbuotining milliy matbuot sifatida shakllanishi, "Uchinchi renessans: ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti istiqbollari", ISSN 2181-1784*
7. *Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida millat va milliyat masalalarining yoritilishi.*
8. *Pardaev Q. O'zbek milliy uyg'onish adabiyotini o'rganishda matbuotning o'rni.* - T.: —Muharrir, 2012.
9. *Sharafiddinov O. Dovondagi o'ylar. Toshkent, —Ma'naviyat nashriyoti, 2004*
10. *Qosimov B. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. Toshkent, —Fan va texnologiya nashriyoti, 2008.*